

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 332.12:330.322.54(575.1)**

XAYDAROV XURSHIDBEK LATIPJONOVICH

**O‘ZBEKISTON HUDUDLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH
SAMARADORLIGI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor F.I.Isayev**

Toshkent – 2025

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	MINTAQALARGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§.	Investitsion jozibadorlik tushunchasining nazariy asoslari va uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan o‘zaro bog‘liqligi.....	12
1.2-§.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davlat tarafidan tartibga solish va uning mintaqaviy xususiyatlari.....	24
1.3-§.	Hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	43 56
II BOB.	O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH HOLATI, OMILLARI VA INSTITUTSIONAL MUHITI.....	58
2.1-§.	Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya oqimlari tahlili.....	58
2.2-§.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta’sir etuvchi omillar va ularni baholash.....	77
2.3-§.	Hududlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmlari va investitsion jozibadorlikka ta’siri.....	97
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	109
III BOB.	MINTAQQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	111
3.1-§.	Mintaqalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish....	111
3.2-§.	Mintaqalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda risklarni boshqarish va ularning raqobatbardosh ustunliklaridan samarali foydalanish.....	125
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	142
	XULOSA.....	145
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	148
	ILOVALAR.....	168

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda geosiyosiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishi, inflyatsiyaviy bosim, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari va mehnat resurslarining noteng taqsimlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarda hududiy nomutanosibliklar keskinlashmoqda. Bu esa mintaqalar darajasida samarali investitsiya siyosatini shakllantirish va har bir hududning ichki salohiyatidan oqilona foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. OECDning tahliliga ko‘ra, “2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 1 % ga o‘sgani bilan geosiyosiy xavflar investitsiya muhitini nomustahkam holda qoldirayotganini ko‘rsatadi”¹. Bundan kelib chiqib, investitsiya siyosatini hududiy darajada qayta ko‘rib chiqish, hududlar ehtiyojidan kelib chiqadigan mexanizmlarni shakllantirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy ilmiy izlanishlarda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, mahalliy infratuzilmaviy bazani takomillashtirish, investitsiya muhitini baholash mezonlarini yangilash va resurslarni hududlar o‘rtasida samarali taqsimlash bo‘yicha yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, strategik tarmoqlarga investitsiya oqimini yo‘naltirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini hududiy miqyosda rivojlantirish, investitsiya xavflarini baholash, klasterlashuvni rivojlantirish, inson kapitali va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyiha tanlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar ham ilmiy tadqiqotlarning markaziy nuqtasini tashkil etmoqda. Bunday kompleks yondashuvlar hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ichki va tashqi investitsiya manbalarini faol safarbar etish, hamda iqtisodiy o‘shishni hududiy darajada mustahkamlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

¹ FDI in Figures, April 2025, Modest growth in global FDI flows in 2024 masks weaker underlying trends https://www.oecd.org/en/publications/fdi-in-figures-april-2025_d5a76fd0-en.html?utm

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hududlar iqtisodiyotini muvozanatli rivojlantirish, tarmoqlararo nomutanosiblikni bartaraf etish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan. Xususan, “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirishi uchun iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish”² kabi ustuvor yo‘nalishlar “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida dolzarb amaliy vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishning hududiy mexanizmlarini takomillashtirish, tartibga solishda pragmatik yondashuvlarni joriy etish, investitsiya oqimi bilan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish va investitsiya samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat zarur, balki dolzarb ilmiy-amaliy ehtiyoj sifatida shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘rnatish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 1-martdagi PQ-83-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar P.Athukorala, P.Alexey, V.Andersen, C.Howell, A.Vadym, Y.Zheng, R.P.Sandulskiy, Ye.V.Korolevalarni³ kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.M.Axmedov, A.M.Kadirov, F.T.Egamberdiyev, O.Olimjonov, B.Ruzmetov, I.Yakubov, A.B.Nizamov, A.S.Saliyev, A.A.Nizamov⁴ va boshqa olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy

3 Athukorala, P. (2014). Intra-regional FDI and Economic Integration in South Asia. South Asia Economic Journal, 15, 1 - 35. <https://doi.org/10.1177/1391561414525710>; Alexey, P., Sokolov. (2024). Formation and assessment of the investment attractiveness of the region at the heart of the economic development of the state. Ekonomika selskoxozyaystvennykh i pererabatyvayushchix predpriyatii, doi: 10.31442/0235-2494-2024-0-1-18-23; Andersen Vietnam (2025) Latest Updates on Investment Incentives in Hi-tech Park and Industrial Zones in Da Nang, Vietnam (PDF); Howell, C. (2020). Rethinking the Role of the State in Employment Relations for a Neoliberal Era. ILR Review, 74, 739 - 772. <https://doi.org/10.1177/0019793920904663>; Vadym, Artiukh. (2024). Economic essence of "investments" and their classification. Ekonomika, finansi, pravo, doi: 10.37634/efp.2024.3.7; 2.89; Zheng, Y. (2020). How FDI attracted? A Configurational Analysis for Regional Competitiveness in Mechanism of FDI Entry and Exit: Evidence from China. <https://doi.org/10.21203/rs.3.rs-74788/v1>; Koroleva Ye.V. (2023). Assessment of investment attractiveness of the enterprise. Ekonomika i predprinimatelstvo doi: 10.34925/eip.2023.155.6.170; Sandulskiy R.P. (2024). Theoretical basis of investments and investment activity research. Yekonomika ta upravlinnya APK, doi: 10.33245/2310-9262-2024-189-1-95-109.

4 T.M.Axmedov Strategiya kompleksnogo i ustoychivogo razvitiya regionov Uzbekistana. V kn.: Modernizatsiya natsionalnoy ekonomiki Uzbekistana. – T.: AN RUz, 2011. – S. 18-21.; A.M.Kadirov Regionalnaya ekonomika. Uchebnoye posobiye. – T.: Izdatelskiy dom Innovatsionnogo razvitiya, 2018 g., 227 s.; F.T.Egamberdiyev Sovershenstvovaniye struktury proizvodstva na vnutrireionalnom urovne //Molodoy uchenyy. – 2016. – №. 21-1. – S. 61-63.; O.O.Olimjonov i dr. Strukturnye preobrazovaniya v selskom xozyaystve kak faktor razvitiya v usloviyax globalizatsii //Sovremennyy vektor: mirovaya ekonomika, menedjment i marketing. – 2016. – S. 113-119.; B.Ruzmetov Kompleksnoye razvitiye regiona v usloviyax uglubleniya ekonomicheskix reform. Avtoref. dis. dokt. ekon. nauk. – Tashkent: 1998.; I.Yakubov Formirovaniye effektivnoy struktury ekonomiki regionov Uzbekistan v usloviyax uglubleniya gыmochnoy reformy. Avtoref. dis. kan. ekon. nauk. – Tashkent: 2004.; A.B.Nizamov Ekonomicheskii rost: upravleniye regionalnoy ekonomikoй v usloviyax gыnka. Monografiya. – T.: Turon-Iqbol, 2006, 208 s.; A.S.Saliyev i dr. Sdvigi v otraslevoй i territorialnoy strukture ekonomiki Uzbekistana

ishlarida o'z aksini topgan. Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsion jarayonlarni rivojlantirish mexanizmlari, ularning hududiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri va investitsion jozibadorlikni shakllantiruvchi omillar turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. A.M.Kadirov va A.T.Akhmedieva o'z ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston hududlarida investitsion jarayonlarning institutsional muhitini takomillashtirish, xususan investitsiyalash jarayonida lizing instrumentlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslab bergan⁵. B.B.Valiyev tomonidan hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiya salohiyatini baholash tamoyillari, hududiy resurslar tarkibi, iqtisodiy faollik omillari va investitsion salohiyatdan foydalanish mexanizmlari tizimli o'rganilgan⁶.

Shuningdek, A.E.Qobilov, N.N.Norqobilov, D.I.Ibadullayev, Sh.K.Ahmedovlarning⁷ ilmiy ishlarida hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish samaradorligiga oid nazariy va metodologik asoslarining ayrim jihatlari o'rganilgan. Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan uyg'un bog'lagan kompleks baholash metodikasi hali to'liq shakllanmagan. Shu bois mazkur dissertatsiyada hududlar kesimida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar taklif etiladi, bu esa hududlarning barqaror

//Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya. Vestnik Assotsiatsii Rossiyskix Geografov-obshchestvovedov. – 2016. – №. 5. – S. 209-218.; A.A.Nizamov Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: O'zMU, 2021. – 58 b.

⁵ A.M.Kadirov, A.T.Akhmedieva Institutional aspects of improving the mechanism of leasing investment in the Republic of Uzbekistan. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" № 1. 2023. 42-52 b;

⁶ B.B.Valiyev O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent-2022. – 233 b.;

⁷ A.E.Qobilov Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch-2021; N.N.Norqobilov "Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintqa iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlash". (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Urganch-2022. – 145 b.; D.I.Ibadullayev Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish (Xorazm viloyati misolida) (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Urganch-2022. – 157 b.;

iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda investitsion siyosatning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

investitsion jozibadorlik tushunchasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonining nazariy asoslarini tadqiq qilish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishning mintaqaviy xususiyatlarini ochib berish;

hududlarda investitsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha mavjud uslubiy yondashuvlarni o'rganish;

O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va hududlar bo'yicha investitsion faollik darajasidagi farqlanish omillarini aniqlash;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish;

hududlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmlarini tahlil qilish;

investitsiyalarni jalb qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

investitsiyalarni jalb qilishda risklarni boshqarish va ularning raqobatbardosh ustunliklaridan samarali foydalanish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududlarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sanoat zonalarida doirasida yer maydonlari va ishlab chiqarish infratuzilmasini elektron auksion orqali taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, savdolarni tashkil etish muddatlarini qisqartirish orqali investitsiya faolligini rag'batlantirish taklif etilgan;

elektron auksionda g'olib deb topilgan ishtirokchi bilan g'oliblik bayonini rasmiylashtirish paytida ijara shartnomasi hamda investitsiya majburiyatlarini o'z ichiga olgan bitimni bir vaqtda imzolash va davlat ro'yxatiga olish tartibini joriy etish taklif etilgan;

investitsiya majburiyatlarini bajarmagan tadbirkorlik sub'ektlaridan yer uchastkalarini qaytarib olish bo'yicha sudga murojaat etgan holda mahalliy hokimiyat organlarini davlat bojini to'lashdan ozod etish tartibini joriy etish taklif etilgan;

maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarida hududida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarish binolarini qurish, ularni ijaraga berish, sanoat ipotekasi yoki bo'lib-bo'lib to'lash asosida sotish imkonini yaratadigan huquqiy-tashkiliy mexanizmi taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hududlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga strategik ahamiyatga ega investitsiya bitimlarini muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha kengaytirilgan vakolatlar berish taklif asoslantirilgan;

"E-Lot 7+3" elektron auksion protokolini joriy etish orqali yer uchastkalarini avtomatlashtirilgan tanlov va litsenziyalash bosqichlari asosida huquqiy jihatdan himoyalangan holda investorlarga taqdim etish tartibi ishlab chiqilgan;

Orolbo'yi mintaqasida tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida minimal investitsiya talabini 100 ming AQSH dollarigacha kamaytirish taklif etilgan;

sanoat zonalarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirish maqsadida tayyor infratuzilmaviy obyektlarni "Anchor tenant + shared facility" modeli asosida xususiy-davlat sherikligi tamoyillariga ko'ra joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan. Ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va tahliliy usullar tadqiqot maqsadiga to'liq mos keladi hamda ularning ilmiy jihatdan asoslanganligi ta'minlangan. Tadqiqot natijalarida keltirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi mazkur ishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi hududlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholashga doir nazariy va metodologik asoslarni boyitish, investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tizimli o'rganish orqali mintaqaviy iqtisodiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun poydevor yaratish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi hududlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyalarini shakllantirish, investitsion muhitni yaxshilash, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, oliy ta'lim

muassasalari uchun o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash, shuningdek, xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

sanoat zonalari doirasida yer maydonlari va ishlab chiqarish infratuzilmasini elektron auksion orqali taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, savdolarni tashkil etish muddatlarini qisqartirish orqali investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 15-apreldagi 05-77-1-00406-son ma'lumotnomasi). Natijada yer resurslariga tezkor chiqish va ma'muriy jarayonlarni qisqartirish orqali investitsiya faolligi va loyihalarni amalga oshirish sur'ati oshirilgan;

elektron auksionda g'olib deb topilgan ishtirokchi bilan g'oliblik bayonini rasmiylashtirish paytida ijara shartnomasi hamda investitsiya majburiyatlarini o'z ichiga olgan bitimni bir vaqtda imzolash va davlat ro'yxatiga olish tartibini joriy etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil

15-apreldagi 05-77-1-00406-son ma'lumotnomasi). Natijada huquqiy kafolat kuchaydi, shartnoma rasmiylashuvidagi kechikishlar bartaraf etilib, investitsiya boshlanish bosqichida aniqlik ta'minlangan;

investitsiya majburiyatlarini bajarmagan tadbirkorlik sub'ektlaridan yer uchastkalarini qaytarib olish bo'yicha sudga murojaat etgan holda mahalliy hokimiyat organlarini davlat bojini to'lashdan ozod etish tartibini joriy etish

bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 15-apreldagi 05-77-1-00406-son ma'lumotnomasi). Natijada samarasiz yer egalariga nisbatan huquqiy ta'sirchanlik ortdi, muammoli aktivlarni iqtisodiy faol subyektlarga tez o'tkazish imkoniyati yaratilgan;

maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari hududida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarish binolarini qurish, ularni ijaraga berish, sanoat ipotekasi yoki bo'lib-bo'lib to'lash asosida sotish imkonini yaratadigan huquqiy-tashkiliy mexanizmi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 15-apreldagi 05-77-1-00406-son ma'lumotnomasi). Natijada infratuzilmani xususiy mablag'lar bilan rivojlantirish orqali investorlar uchun tayyor obyektlar bazasi shakllangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etadi.